



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

HOZIRGI DAVRDA TURKIYA TASHQI SIYOSATI: MINTAQAVIY DAVLATDAN
GLOBAL DAVLAT SARI**Suhrob Bo'ronov***Dotsent, s.f.f.d. (PhD)***Fotima Nazarova***magistrant**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: NATO, Strategik chuqurlik, "Qo'shnilar bilan nol muammo", Neosmonizm, Turkiy dunyo, "O'rta buyuk davlat", "Dunyo beshdan buyukdir", "Yevropaning kasalmamand kishisi".

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiyaning hozirgi davrdagi tashqi siyosati va konsepsiyalari, uning mintaqaviy davlatdan global davlatga aylanishiga qaratilgan strategiyasi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada Turkiyaning musulmon dunyosi va turkiy dunyodagi tashqi siyosiy qarashlari va o'rni qisqacha tahlil etiladi.

TURKEY'S FOREIGN POLICY IN THE PRESENT PERIOD: FROM REGIONAL TO
GLOBAL**Suhrob Buronov***Associate Professor, Ph.D. (PhD)***Fatima Nazarova***master's degree**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: NATO, Strategic Depth, "Zero Problems with Neighbors," Neo-Ottomanism, Turkic World, "Middle Great Power,"

Abstract: This article talks about Turkey's current foreign policy and concepts, its strategy aimed at turning from a regional state into a global state. The article also briefly analyzes Turkey's foreign political views and position in the Muslim world and the Turkic world.

"World Greater Than Five,"
"Sick Man of Europe."

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ТУРЦИИ В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ: ОТ РЕГИОНАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА К ГЛОБАЛЬНОМУ

Сухроб Бурунов

Доцент, (PhD)

Фатима Назарова

магистрант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: НАТО, Стратегическая глубина, «Ноль проблем с соседями», Неоосманизм, Тюркский мир, «Средняя великая держава», «Мир больше пяти», «Больной человек Европы».

Аннотация: В данной статье говорится о современной внешней политике и концепциях Турции, ее стратегии, направленной на превращение из регионального государства в глобальное государство. В статье также кратко анализируются внешнеполитические взгляды и положение Турции в мусульманском и тюркском мире.

KIRISH

Bugungi Turkiya nafaqat Yaqin Sharqning, balki jahon siyosatining muhim va faol aktorlaridan biri hisoblanadi. Jo'g'rofiy joylashuv, harbiy salohiyat, demografiya, jahon kuch markazlari bilan yaqin aloqalar va boshqa omillar Turkiyaning faol tashqi siyosat olib borishiga imkoniyat yaratib beradi. Bundan tashqari, bugungi Yaqin Sharqning geosiyosiy arxitekturasi Turkiya bilan hisoblashmasdan, uning o'rni va ta'sirini jiddiy e'tiborga olmasdan shakllantirilishi imkonsiz, desak sira mubolag'a bo'lmaydi.

TADQIQOTNING USULLARI

Ushbu maqolada tizimli-funksional tahlil, tarixiylik, iver va qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida Turkiyaning mintaqaviy davlatdan global davlatga aylanishga qaratilgan tashqi siyosiy strategiyasi tanlab olindi. Tadqiqotning metodologiyasi Turkiyaning tashqi siyosiy konsepsiyalari va hozirgi strategiyasini o'rganishdagi tizimli usullarni o'z ichiga qamrab oladi.

NATIJALAR

Sharqshunos olim Suhrob Bo'ronov o'zining rasmiy telegram sahifasida Turkiyaning mintaq va dunyo tartibidagi o'rni va ahamiyatini quyidagicha tahlil etadi:

“So'nggi yillarda Turkiya Respublikasi mintaqaviy davlatdan jahoniy davlat maqomiga aylanish da'volarini oshkora ma'lum qilmoqda. Hozirgi Turkiya bunga erisha oladimi? Buning uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

1. Geosiyosiy. Turkiya Yevropa va Osiyoni bog'laydigan ko'prik bo'lib, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Janubiy Kavkazdagi kuchli o'yinchi davlatlardan biri. Turkiya so'nggi yillarda turli qurolli mojarolarni hal etish jarayonlarida o'zining vositachilik pozitsiyasi orqali ham yirik kuchlarning e'tiborini o'ziga jalb etmoqda.

2. Geostrategik. Xalqaro maydonda katta ta'sirga ega hisoblangan NATOning a'zosi. U NATOdagi qo'shinlar soni bo'yicha ulushda Amerikadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, Turkiya dunyodagi harbiy bazalar va obyektlar soni bo'yicha top 5 talikka kiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, ularning soni 10 tadan ortiq.

3. Geoiqtisodiy. Turkiya G20 a'zosi. U Yevropa va Osiyoning transport chorrahasi sifatida neft va gaz quvurlari yo'laklari savdosi kesimida muhim halqa vazifasi bajaradi. Bu degani tijorat bilan shug'ullanuvchi kuch markazlari Turkiya bilan hisoblashishi lozimligini anglatadi.

4. Turkiy dunyo. Turkiya Turkiy davlatlar tashkilotida yetakchi davlat. Bugungi kunda ushbu tashkilot Yevroosiyo makonidagi geosiyosiy kuchlar balansida muhim aktorlardan biriga aylanib ulgurdi.

5. Yumshoq kuch. Turkiyaning "yumshoq kuchi" faqatgiga turkiy dunyo mamlakatlarida emas, balki Yevropa (ayniqsa, Germaniya va Vengriya), Afrika va Arab mamlakatlarida ham o'ziga xos o'ringa ega. Bu o'ziga xoslik xorijdagi bugungi turk diasporalarida shakllangan vatarparvarlik va milliyatchilik zehniyati yuqori ekanligi bilan bog'liq. Shuningdek, Turkiya Prezidenti Yevropadagi sammitlarda yoki boshqa qator xorijiy tashriflarda ingliz tilida emas, faqat turk tilida nutq so'zlaydi. Qolaversa, Turkiya islom olamida yetakchilik qilish uchun asosiy da'vogar davlatlardan biri. Hozirgi Turkiyada buning uchun zarur resurslar mavjud.

Umuman, Turkiya jahon darajasidagi qudratli davlatlardan biri bo'lish uchun bir qator imkoniyatlarga ega. Ammo, rasmiy Anqara bunga erishishi uchun avvalo o'zining ichki muammolarini, shuningdek, Suriya, Iroq va Falastin bilan bog'liq masalalarda hal qiluvchi kuchga aylanishi va yirik davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy muvozanatni mustahkam ushlay olishi lozim" (Бўронов, 2024, Дунё...).

XX asr davomida Turkiya o'z tashqi siyosatida uchta yo'nalishni ustuvor etib belgilaganini qayd etish mumkin:

- G'arb bilan yaqinlashuv. Turkiya shu maqsadda NATOga a'zo bo'ldi va 1960-yillardan boshlab Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishga intila boshladi;
- Yaqin Sharqdagi muammolarni hal etish. Yaqin Sharqda Arab-Isroil urushlari, kurdlar muammosi, qo'shni Suriya va Iroqdagi harbiy-siyosiy o'zgarishlar Anqarani tashvishlanishiga va bu muammolarni G'arb bilan hamkorlik asosida hal etishga undadi;

- Turkiy davlatlar bilan hamkorlik. SSSRning parchalanib, uning o'rnida mustaqil respublikalar tashkil topishi bilan Turkiya ularning mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan oldi.

XXI asrda esa Turkiyaning Yevropa Ittifoqqa qabul qilinishi pajsalsa solinishi, "Arab bahori" voqealari, Turkiyada sodir bo'lgan harbiy to'ntarishlar Anqarani muvozanatli tashqi siyosat olib borishiga, asosan arab-musulmon dunyosi va Turkiy dunyo bilan yanada yaqinlashishiga sabab bo'ldi.

Strategik chuqurlik. Turkiyani o'rganuvchi tadqiqotchilar va ekspertlar uning XXI asrdagi tashqi siyosatini ishlab chiqqan dastlabki arxitektor sifatida Ahmed Davuto'g'lini qayd etishadi. Uning "Strategik chuqurlik" (Davuto'g'lu, 2012, 548 s.) nomli kitobida Turkiya tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, "Qo'shnilar bilan nol muammo" tamoyili, Anqaraning turli mintaqalardagi tashqi siyosati qanday bo'lishi lozimligi haqida so'z yuritiladi. Ahmet Davuto'g'li mamlakatning asosiy geostrategik maqsadi Turkiya atrofidagi mintaqalarda faol siyosiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar orqali xalqaro mavqeyini mustahkamlash, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Turkiya Yaqin Sharq, Bolqon, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Kaspiy, O'rta Yer dengizi va Qora dengizning barcha mintaqalarida bir vaqtning o'zida yetakchi rol o'ynashga qodir bo'lgan davlat" (Davuto'g'lu, 2012, S.118).

Bugungi kunda Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an rahbarligida amalga oshirilayotgan Turkiya tashqi siyosati jo'g'rofiy jihatdan kengayish jarayonlari faol ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, Osiyo, Afrika va Yevropa hududlarida Turkiyaning o'ziga xos tashqi siyosiy o'rni va roli mavjud, deb aytish mumkin. Shuningdek, Turkiya mintaqalarda davom etayotgan turi nizo o'choqlarini bartaraf etish, qurolli to'qnashuvlarni vositachilik diplomatiyasi bilan hal etishga, mojaroli hududlarga ko'mak ko'rsatish orqali o'z tashqi siyosatini faol ekanligini namoyon etib kelmoqda. R.T.Erdog'an "Dunyo yanada odil bo'lishi mumkin" nomli kitobida Turkiya tashqi siyosatini quyidagicha izohlaydi: "Tinchlik, adolat va qadriyatni diqqat markazida tutadigan tashqi siyosatimiz so'zda qolib ketmadi. Suriyadan Falastinga, Iroqdan Somaliga, Liviyadan Myanmaga, Bolqondan Markaziy Osiyoga qadar ko'plab hududlarda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shunday g'ayratlarimiz natijasida Turkiya yalpi milliy mahsulot nisbatida dunyoning eng ko'p insoniy yordam ko'rsatgan mamlakati darajasiga ko'tarildi. Urushdan, ochlikdan va terrordan qochgan mazlumlarga dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari ham o'z darvozasini yopgan paytda Suriya va Iroqdan kelgan millionlab qochqinlarga Turkiya millati, tili va diniga qarab ajratmasdan, mezbonlik ko'rsatdi" (Эрдоған, 2022, Б.20.).

Hozirgi turk siyosatchilari Turkiyani mintaqaviy davlatdan global aktor sifatida namoyon bo'lishi maqsadlari bor ekanligini yashirmasdan, oshkora ma'lum qilishmoqda. Jumladan,

Turkiya yetakchisi R.T.Erdog'an tomonidan global shaxmat doskasida Turkiyaning ta'sirchan o'yinchi sifatidagi roli mustahkamlanib borayotgani xususida bildirilgan fikr-mulohazalar (Эрдоган, 2024, Турция...) yuqoridagi oshkoralikdan dalolat beradi. Shu nuqtayi nazardan aksariyat turk olimlari ham Turkiyaning mavqeyi va ta'sirini baholashda o'ziga xos yondashuvlarni ilgari surib kelmoqda. Xususan, Oral Sander "Turkiya tashqi siyosati" nomli kitobida Turkiya mintaqaviy emas, balki xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sir etuvchi davlat ekanligi va shundan kelib chiqib, uni "O'rta buyuk davlat" (Oral, 2013, S.148.) deb ta'riflaydi. Ammo, Turkiyaning tashqi siyosatda faollashuvi kuchayib borayotgan bo'lsa-da, hozircha uni global kuch markazi deb atash ma'lum vaqt talab etadigan jarayondir. Turkiya buning uchun Yevroosiyo makonida Rossiya va Xitoy singari kuchli va yetakchi aktorlar bilan bimalol raqobat qila oladigan harbiy va iqtisodiy qudratga aylanishi lozim.

Imperator Napoleon Bonapart ta'kidlaganidek, "Geografiyani anglash – bu tashqi siyosatni tushunish demakdir". Ana shu jihatdan Turkiyaning Osiyo va Yevropani bog'lovchi jo'g'rofiy markaz maqomi tashqi siyosatda ham o'z aks sadosini beradi. Bu esa o'z-o'zidan tashqi siyosatning turli yo'li va yo'nalishlari tarafdorlari bo'lgan ichki kuchlarni vujudga keltirgani tabiiy hol hisoblanadi. Tadqiqotchi olim Habibullo Azimov PhD dissertatsiyasida Turkiyaning ichki va tashqi siyosiy yo'liga ta'sir etuvchi kuchlarni uch qismga ajratadi:

Modernistlar. Ular Turkiyaning zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar safida bo'lishi uchun G'arb bilan, jumladan Yevropa davlatlari bilan hamkorlik qilishining tarafdori. Modernistlar fikricha, Turkiya taraqqiyoti uchun eng maqbul yo'l uning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishidir. Shu bilan birgalikda, modernizm tarafdorlari Turkiyaning Yevropa bilan bog'lab turuvchi munosabatlarida hozirgacha iqtisodiy omil emas, harbiy omil ustuvor ekanligini tanqid ostiga olishadi. Buning asosiy sababi Anqara NATOning a'zosi ekanligi bilan bog'liq. Modernistlar Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish Turkiyaning birinchi darajali vazifasi bo'lishi lozim, deb hisoblashadi. Biroq, ba'zan Xristianlar ittifoqi deb ataladigan tashkilot o'z safiga musulmon mamlakatini qabul qilishga qarshi chiqmoqda. Boz ustiga, Kipr muammosi ham Turkiyaning Yevropa oilasida hozir bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, Yevro-parlamentda aholi soniga ko'ra qarorlar qabul qilinishi hisobga olinadi. Turkiyaning a'zolikka qabul qilinishi uni aholi soni bo'yicha Yevropaning ikkinchi davlatiga aylantiradi. Shu va boshqa ayrim geosiyosiy sabablar Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishi uchun xalaqit qilmoqda.

Islom muhofazakorlari. Bu oqim tarafdorlari Turkiyaning tashqi siyosiy yo'li G'arb tomoni emas, aksincha musulmon dunyosi bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ular modernistlarni keskin tanqid ostiga olar ekan, Yevropa integratsiyasi hech qachon Turkiyani o'z safiga qabul qilmasligi natijasida Anqara Yaqin Sharq, jumladan arab-musulmon dunyosi bilan mustahkam

aloqalarni yo'lga qo'yishi lozimligini da'vat etishadi. Turkiyaning ushbu yo'nalishi tarafdorlari buning uchun Turkiyada barcha tarixiy, milliy-madaniy asoslar mavjud, deb hisoblaydi. Taniqli siyosatshunos Samuel Hantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida islom olamida yetakchilik uchun da'vogar 6 ta davlatni ajratib ko'rsatadi:

Indoneziya. Aholisi eng ko'p bo'lgan musulmon mamlakati, iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, lekin Indoneziya islom markazlaridan chetda joylashgan. Aholisi va madaniyati esa islom, hind va xristianlik ta'sirining o'zaro aralashmasidan iborat ekanligi yetakchi bo'lishiga jiddiy xalaqit beradi.

Misr. Arab davlatlari ichida eng qudratli armiyaga ega davlat. Yetakchi islomiy ta'lim muassasasi va qadimiy Misr sivilizatsiya maskani, biroq mamlakat ancha vaqtdan buyon AQShga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib qolgan.

Eron. Hududining kattaligi, strategik joyda joylashuvi hamda harbiy salohiyati nuqtayi nazaridan yetakchi bo'lishi mumkin. Ammo, dunyo musulmonlarining 90 foiz qismini sunniylar tashkil etishi, Eron esa dunyoda musulmon shialarni qo'llovchi davlat ekanligi tufayli bunga erishishi mushkul.


Pokiston. Aholisi va hududi katta ekanligi va eng asosiysi yadroviy qurolga ega bo'lgan yagona islom davlati ekanligi sababli yetakchi bo'lishi mumkin, ammo Pokiston kambag'al mamlakat bo'lib, unda etnik va hududiy bo'linishlar hamda Hindiston bilan geosiyosiy raqobati yuzasidan yetakchi bo'la olmaydi.

Saudiya Arabistoni. Islom tamaddunining beshigi, dunyoning eng mo'tabar islomiy maskanlari mavjudligi, shuningdek, arab olamida eng katta neft zaxirasiga ega bo'lishi sababli yetakchi bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, Saudiya Arabistoni mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan AQShga qaram davlat sanaladi.

Turkiya. Tarixi, aholisi, iqtisodiy rivojlanishi, milliy birligi va harbiy qudrati islom olamida yetakchi bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Hantington fikricha, aynan Turkiyada islom dunyosining yetakchisi bo'lish salohiyati mavjud. Garchi Turkiya dunyoviy davlat bo'lsa-da islom dunyosining asosiy vakili sifatida o'zining tarixiy roliga qaytishni istashi ushbu davlatni islom olamining lideri bo'lishi uchun huquqlar taqdim etishi mumkin.

Yaqin Sharq mintaqasidagi nufuzli arab davlatlarining Turkiya bilan sezilarli yaqinlashuvi (uning rolini tan olishi), Turkiya harbiy bazalarining mintaqaga bo'ylab joylashuvi, jumladan Ukrainadagi urush holati tufayli AQSh va Rossiya o'rtasidagi geosiyosiy raqobat sharoitida muhim o'yinchi davlatga aylangani, shuningdek, amaldagi rahbari Erdog'an tomonidan islom olamidagi vaziyatga aniq va dadil pozitsiya bildirilishi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagandek bo'ladi.

Konservatorlar. Konservatorlar Turkiyaning tarixiy buyukligiga qaytishini qo'llab-quvvatlashadi. Bu borada "Yangi Usmoniylik" (Neousmonizm) hamda "Turkiy dunyo" singari konsepsiyalar turk konservatorlarining asosiy g'oyalarini tashkil etadi. Ularning nazarida Usmoniylar imperiyasi parchalanishi oqibatida tashkil topgan bir qator davlatlarning bugungi sarhadlarida Anqara tomonidan harbiy bazalarning joylashtirilishi, Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida "Turkiy dunyo"ni barpo etish jarayonlari Turkiya tashqi siyosatida ustuvor o'rinda bo'lishi lozim. Bu borada Turkiyaning "Milliy harakat" partiyasi yetakchisi Devlet Baxcheli Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anga "Turkiy dunyo" xaritasini sovg'a qilgani alohida e'tiborga molik (Azimov, 2024, B.87-89.).



Turkiy dunyo xaritasi

Umuman, "Strategik chuqurlik" doktrinasini Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosiy konsepsiyasi deb aytsa bo'ladi. Ammo, unda ilgari surilgan "Qo'shnilar bilan nol muammo" tamoyili "Arab bahori" voqealari hamda Suriya va Iroqda kurdlar harakatlarining faollashuvi natijasida o'z ahamiyatini yo'qotib, Anqaraning tashqi siyosatda "hard power" yo'lidano ketishiga olib keldi.

Neousmonizm. Neousmonizm zamonaviy reallikdan kelib chiqib, o'tmishda usmoniylarga tegishli bo'lgan hududlarda bugungi Turkiyaning ta'siri va rolini oshirishga qaratilgan tashqi siyosat konsepsiyasi hisoblanadi. Ekspertlarning fikrlariga ko'ra, Turkiyaning yangi "usmonizm" strategiyasi quyidagi prinsipial pozitsiyani ifodalaydi:

1. Turkiya bundan buyon o'zini AQSh yoki NATOning "kichik sherigi", deb hisoblamaydi. U o'zini Yevroosiyoning markazi deb nomlar ekan, vositachilik tashabbuslariga asoslangan mintaqaviy xavfsizlik tizimida asosiy rolni egallashga da'vogarlik qiladi. Buning tasdig'ini 2022-yil fevralda boshlangan Rossiya-Ukraina urushi tufayli G'arb va Rossiya munosabatlarining keskin sovuqlashishi sharoitida Turkiya NATOning a'zosi hisoblansa-da,

betaraf pozitsiyani mahkam tutib kelgani va mojaroni hal etish maqsadida vositachilik diplomatiyasini amalga oshirgani misolida ko'rishimiz mumkin. 2023-yil oktyabrda boshlangan Falastin-Isroil urushida esa Turkiya Falastinni qo'llab-quvvatlab, musulmon dunyosida yetakchilik maqomini namoyon etishga harakat qildi. Tabiiyki, Turkiyaning bunday pozitsiyasi uning Isroilni to'liq qo'llab kelayotgan G'arb davlatlari tarafida emasligini anglatadi. Shuningdek, Finlandiya va Shvetsiyaning NATOga qabul qilinishiga qarshilik ko'rsatgan Turkiya geosiyosiy vaziyatdan foydalanib, AQSh va Yevropaga yuqoridagi kabi "kichik o'yinchi" emasligini isbotlashga uringani ham alohida e'tiborga molik. Garchi Turkiya keyinchalik ikki davlatning NATOga qabul qilinishiga rozilik bildirsa-da, ma'lum shartlar va talablarni amalga oshirishga erisha oldi, deb aytish mumkin.

2. Turkiya o'zini Turkiy dunyoning yetakchisi deb hisoblamoqda. Anqara tashqi siyosiy strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishda, jumladan, oshkora ma'lum qilinmasa-da, neusmonizm konsepsiyasini amaliyotga tadbqiq etishda Turkiy dunyo ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkilotiga Vengriyaning kuzatuvchi sifatida qabul qilinishi, shu bilan birga Shimoliy Kipr Turk Respublikasini ham tashkilotga kuzatuvchi sifatida jalb etishga qaratilgan xatti-harakatlar ayni shunday maqsadlardan dalolat bermoqda. O'z navbatida, Turkiya Tog'li Qorabog' hududining Ozarbayjonga qaytarilishida asosiy o'rinlardan birini o'ynagan tashqi aktor hisoblanadi.

3. Neusmonizm konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Qrim va Bolqon hisoblanadi. Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti eksperti, tarix fanlari nomzodi Elnur Mexdiyevning qayd etishicha, Turkiya mazkur hududlarda neusmonizm konsepsiyasini "hard power" tamoyillari bilan emas, balki "soft power" asosida amalga oshirish yo'lidan bormoqda. Bunda Turkiya nizolarni hal etishda vositachilik roliga da'vogar ekanligi, jumladan "Sivilizatsiyalar alyansi" kabi xalqaro vositachilik tashabbuslari bilan alohida ajralib turadi (Мехдиев, 2016, С.36.).

Kaspiy strategik tadqiqotlar instituti eksperti, tarix fanlari nomzodi Amur Gadjiyevning tahlillariga ko'ra, qurol-yarog' savdosi va harbiy bazalar ochish zamonaviy davrda Anqara tashqi siyosatining muhim vositasi hisoblanadi. Uning nuqtayi nazariga ko'ra, ushbu transformatsiya Turkiya zamonaviy tashqi siyosatining uchta muhim tendensiyasi bilan bog'liq:

1. Turk diplomatiyasini harbiylashtirish va sekyuritizatsiya qilish.

2. Tashqi siyosiy g'oyalarni amalga oshirishga yordam beruvchi harbiy-sanoat kompleksini rivojlantirish.

3. "Turkiyaning mudofaasi Turkiya chegaralaridan tashqarida boshlanadi", degan tezisni mustahkamlash (Гаджиев, 2023, Турецкой ...).

Amur Gadjiyevning fikrlari bugungi Turkiya tashqi siyosatining xususiyatini aniqlashda va baholashda muhim va qiziqarli ekani bilan alohida ajralib turadi. Misol uchun, 2023-yil may oylaridagi saylovlardan keyin Turkiya Milliy razvedka tashkiloti rahbari bo'lgan Hoqon Fidanning Turkiya Tashqi ishlar vaziri etib tayinlanishi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlashga imkon yaratib beradi. Chunki, Hoqon Fidan harbiy sohada ham, diplomatiya sohasida ham katta tajribaga ega.

“Dunyo beshdan buyukdir”. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tezis BMT Xavfsizlik Kengashini zamon talablariga muvofiq isloh qilishni nazarda tutadi. Unga ko'ra, dunyoning taqdiri beshta davlat (Xavfsizlik Kengashining beshta doimiy a'zosi) qo'lida bo'lmasligi lozim. Turkiya yetakchisi o'zining ushbu qarashlari va g'oyalarini “Dunyo yanada odil bo'lishi mumkin” nomli kitobida batafsil qayd etadi. Jumladan, kitobda bu haqida quyidagicha yoziladi: “Dunyo katta muammolar bilan yuzma-yuz turgan bir davrda insoniyatning taqdiri sanoqli davlatlarning ixtiyoriga tashlab qo'yilishi mumkin emas. Xalqaro tashkilotlarning o'z e'tiborini yo'qotishining oldini olish uchun, avvalo, tafakkurimizni, muassasa va tashkilotlarimizni qaytadan ko'zdan kechirib chiqishimiz lozim” (Эрдоған, 2022, B.11.). Shundan kelib chiqib, kitobda BMT tizimining mavjud holati bugungi kun talablariga javob bermasligi tanqid ostiga olinib, Turkiya davlati Xavfsizlik Kengashini isloh qilinishi masalasida qat'iy ekanligi ta'kidlanadi. Kitob muallifining quyidagi tanqidlari insoniyat va jahon hamjamiyatini jiddiy mushohadaga chorlashi lozim, deb hisoblaymiz: “Qit'a o'laroq qaralganda, Xavfsizlik Kengashining hozirgi asosiy a'zolari Osiyo, Yevropa va Amerika qit'alaridandir. Diniy qatlam jihatidan qaralganda esa, Kengashning doimiy a'zolari deyarli xristianlardir. Dunyoda yirik diniy qatlam hisoblangan musulmonlar va son jihatidan yirik diniy guruhlar Kengashda vakolatga ega emas. Dunyo aholisining uchdan birini tashkil etadigan, 57 a'zoga ega Islom Hamkorlik Tashkilotining, afsuski, bu muhim tashkilotda hech qanday vakolati ham, vazifasi ham yo'q. Kelib chiqishi jihatidan esa arab, turk, hind, indoneziyalik, afrikalik kabi ko'p sonli xalqlarning Kengashda hech qanday vakili mavjud emas. Ikki yillik muddatga saylangan muvaqqat a'zolarining esa Kengash qarorlarida ta'siri deyarli sezilmaydi. Faqat Xavfsizlik Kengashidan o'rin olgan davlatlarning emas, dunyo xalqlarining emin-erkin so'z aytish huquqi mavjud bo'lgan tashkilot barpo etilsagina, dunyo tinchligi va xavfsizligiga hissa qo'shishi mumkin. Odil va barqaror global tinchlikning ta'minlanishi uchun ko'pmadaniyatlilik va ko'pqutblilikni o'zida mujassam qilgan BMTga ehtiyoj bor. Dunyo na yakka qutbli, na ikki qutblidir. Na ustun bir madaniyatning, na bir necha imtiyoz sohibi kuchlarning hukmi ostidadir. Ko'pqutbli, ko'pmarkazli, ko'pmadaniyatli, qamrov doirasi keng va yanada adolatli dunyo qurishimiz mumkin. Shunday dunyo qurishning ilk manzili BMTdir. Tinchlik, barqarorlik,

adolat va ta'sirchan global boshqaruv yo'li BMTning isloh qilinishi orqali o'tadi" (Эрдоған, 2022, Б.28-29.).

MUHOKAMA

"Dunyo beshdan buyukdir" g'oyasi Turkiya tashqi siyosatining faol va global xususiyatini ifodalab, uni xalqaro sahnada "game changer" sifatida baholashga asos bo'ladi. Chunki, bugungi Turkiya jahon siyosiy o'yinlarida sodir bo'layotgan turli yurishlarni o'z foydasiga o'zgatira olishi, Yevroosiyoing "chuqur davlati"ga aylangani, hattoki, ba'zi vaqtlarda dunyoning yetakchi davlatlariga "yo'q" deya olishi bilan alohida ajralib turadi.

XULOSA

O'z vaqtida "Yevropaning kasalmand kishisi" deya ta'riflangan Turkiya bugungi kunda o'zining tashqi siyosatdagi faol va qat'iy pozitsiyasi, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash jarayonlaridagi vositachilik diplomatiyasi hamda musulmon va turkiy dunyodagi yetakchilikka da'vogarlik maqomi orqali jahonda o'z siyosiy vazniga ega bo'lgan aktorga aylanib bormoqda. Tabiiyki, ushbu tashqi siyosiy strategiya rasmiy Anqarani mintaqaviy davlatdan global davlatga aylanishi imkoniyatlarini kengaytiradi, degan gipotezani ilgari surishga asoslar taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бўронов С.М. (18.01.2024) Дунё сиёсий тартиботида Туркиянинг ўрни. https://t.me/suhrob_buranov/93
2. Davutoğlu Ahmet. (2012) Stratejik Derinlik. Türkiye'nin Uluslararası Konumu. İstanbul.
3. Davutoğlu Ahmet. (2012) Stratejik Derinlik. Türkiye'nin Uluslararası Konumu. İstanbul.
4. Эрдоған Р.Т. (2022) Дунё янада одил бўлиши мумкин. – Т.: Янги аср авлоди.
5. Эрдоған: (10.01.2024) Турция укрепляет позиции глобальной силы. <http://v.aa.com.tr/3105268>
6. Oral Sander. (2013) Türkiye'nin Dış Politikası. İmge Kitabevi Yayınları. 4 Baskı.
7. Azimov H.Y. (2024) Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent.
8. Мехдиев Э.Т. (2016) «Неоосманизм» в региональной политике Турции // Турции в мировой политике и экономике. <https://cyberleninka.ru/article/n/neoosmanizm-v-regionalnoy-politiki-turtsii>
9. Гаджиев А. (3 ноября 2023) Турецкой Республике – 100 лет. Современные тенденции во внутренней и внешней политике, Каспийский институт стратегических исследований. <https://caspian.institute/product/gadzhiev-amur/tureckoj-respublike-100-let-sovremennye-tendencii-vo-vnutrennej-i-vneshnej-politike-38528.shtml>
10. Эрдоған Р.Т. (2022) Дунё янада одил бўлиши мумкин. – Т.: Янги аср авлоди.
11. Эрдоған Р.Т. (2022) Дунё янада одил бўлиши мумкин. – Т.: Янги аср авлоди.